

KASBIY MA'NAVIYATNING VAZIFALARI

Ahmadbekova Madinabonu Yoqubbek qizi

Namangan Davlat Universiteti Tasviriy va amaliy bezak San'ati

2 kurs Magistratura talabasi"

Madinabonuu@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7316351>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy ma'naviyat haqida umumiy ma'lumotlar va ilmiy asosga ega fikrlar keltirilib uning vazifalari va ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini yoritilib o'tildi, shaxs va inson o'rtasida kasbiy ma'naviyat keng tushunib yetish orqali shaxsiy faoliyatda yuqori natija berish uchun zarur tushuncha ekanligi tushuntirildi.

Kalit so'zlar: Kasb, ma'naviyat, texnologiya shaxsiy rivojlanish, noan'anaviy, ehtiyojlar, optimal munosabatlar.

Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarni to'plaganlar. Kasb – inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma'lumot hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi. Kasb – hunarli bo'lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o'z asarlarida aytib o'tganlar. Deylik Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida shunday yozadi "Bas, agar aqling bo'lsa xunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'lki, xunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas." Ayrim bolalar yosh davrlaridanoq o'simliklarga, ularning tuzilishlariga qiziqadilar, ayrimlari xarakterdagi xashoratlarga, xayvonlarga qiziqadilar. Qo'ng'izni ko'rgan bola uni xarakterlanishini tekshirib uni nima xarakterlantirmoqda degan savol bilan tekshirib ko'radilar. Uni bo'laklarga ajratadilar. Bunday bolalardan ko'plab yaxshi vrachlar, injinerlar, konstruktorlar, qassoblar chiqadi. Keyinchalik bunday shaxslar o'zida shu kasbga xos bo'lgan xususiyatlarni rivojlantirib boradilar. Bular ularning qiziqishlaridan kelib chiqadi. Shaxs sifatida bolada shu sohani bilishga ehtiyojlar rivojlanadi. Tanlagan mutaxassisligi bo'yicha bilimlar to'plab boradi. Bu maktabda, oliygohda, atrofdagilarning aytib berishlari va o'zining mustaqil o'rganishlari bilan shakllanib boradi. Maktabda bolalarga kasb bilan bog'liq bo'lgan tanishtirish darslarini ham tashkil etish zarur bo'ladi. Bunda bolalar ko'pchilik kasblar haqida bilib oladilar va kasb tanlashlari uchun imkoniyatlar kengayadi.

Adabiyotlar tahlili. Asoslangan holda ko'rsatilgan ushbu sanab o'tilgan jihatlar shaxs va kasb hamkorligida uchraydi va bu murakkab, dramatik jarayon sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bo'lib o'tadi. Shaxsning kasbga bo'lgan moslashuvida normativ bo'lmagan vaziyatlarni hal etishda psixologiya muhim ahamiyatga ega. Aynan u shaxs va kasb o'rtasida optimal munosabatlarni

o'rnatishda yordam berishi, kishilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirishi lozim. Shaxs va kasblarga moslashuvning ko'p aspektli psixologik fundamentlari an'anaviy tarzda mehnat psixologiyasi tomonidan tadqiq etilgan. Ammo shaxsning to'liq kasbiy shakllanish jarayoni aniqlanmagan. XX asr bo'sag'asida paydo bo'lgan mehnat psixologiyasi kasbiy faoliyat turlarini, faoliyatning insonga, uning psixofiziologik imkoniyatlariga bo'lgan talablarini, kasbiy qobiliyat, ko'nikmalarini o'rganadi.

Kasb psixologiyasining muhim vazifalaridan biri, mehnat sharoitlari, vositalari va mazmunini tahlil qilishdan iborat. Ishlab chiqarishdagi turli nuqsonlarni, layoqat va charchoqni diagnostika qilish orqali optimal ish tajribasini aniqlashga katta e'tibor beriladi. Shaxsning kasbiy rivojlanish va kasbiy jihatidan o'zini topa olish uchun o'z ustida ishlashi va turli masalalarni hal qilish uchun bor kuchini sarflash, shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi destruktiv an'analarni o'zlashtirishda kishilarga psixologik madad va yordam ko'rsatish.

Kasbiy jihatdan o'zini anglash

Insonning kasbni psixologik imkoniyatlarini kasbiy faoliyat mazmuni va talablari bilan bo'lgan jihatlarini mustaqil anglab olishi, shuningdek ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda bajariladigan ishidan ma'no topishi muxim omil sanaladi.

Tahlillar va natijalar. Yuqorida sanab o'tilgan jihatlar shaxs va kasb hamkorligida uchraydi va bu murakkab, dramatik jarayon sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bo'lib o'tadi. Shaxsning kasbga bo'lgan moslashuvda normativ bo'lmagan vaziyatlarni hal etishda psixologiya muhim ahamiyatga ega. Aynan u shaxs va kasb o'rtasida optimal munosabatlarni o'rnatishda yordam berishi, kishilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirishi lozim. Shaxs va kasblarga moslashuvning ko'p aspektli psixologik fundamentlari an'anaviy tarzda mehnat psixologiyasi tomonidan tadqiq etilgan. Ammo shaxsning to'liq kasbiy shakllanish jarayoni aniqlanmagan. XX asr bo'sag'asida paydo bo'lgan mehnat psixologiyasi kasbiy faoliyat turlarini, faoliyatning insonga, uning psixofiziologik imkoniyatlariga bo'lgan talablarini, kasbiy qobiliyat, ko'nikmalarini o'rganadi.

Kasbiy rivojlanishning muhim vazifalarini tushuntirishda mehnat psixologiyasi, mehnat sharoitlari, vositalari va mazmunini tahlil qilishdan iborat sanaladi. Ishlab chiqarishdagi turli nuqsonlarni, layoqat va charchoqni diagnostika qilish orqali optimal ish tajribasini aniqlashga katta e'tibor beriladi. mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va kasb madaniyatini shakillantirish, innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Xulosalar. Hozirgi shiddatli va keskin o'tayotgan zamonda inson hayoti davomida doim kun kechirishi avlodni davom ettirishi uchun muayyan va ijodiy kasb bilan faoliyat yuritib boradi, bu esa shaxs va kasb o'rtasidagi munosabatlar sohasi, pragmatik yo'naltirilgan shaxs hususiyatlari, ular na bilim, na ko'nikma, va na tajriba sifatida alohida kamaytirilmaydi, balki sinkretik bir butun bo'lib ishlaydi. Shaxsning kasbiy rivojlanish va kasbiy jihatidan o'zini topa olish uchun o'z ustida ishlashi va turli masalalarni hal qilish uchun bor kuchini sarflash, shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi destruktiv an'analarni o'zlashtirishda kishilarga psixologik madad va yordam ko'rsatish, kasbiy jihatdan o'zini anglash imkon yaratish lozim.

Insonning kasbni psixologik imkoniyatlarini kasbiy faoliyat mazmuni va talablari bilan bo'lgan jihatlarini mustaqil anglab olishi, shuningdek ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda bajariladigan ishidan ma'no topishi, kasbiy jihatdan o'zini asray olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'raev R.X., Tolipov O 'Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:Fan. 2004. 120 b Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. o'quv qo'llanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.
3. Jo'raev R.X., Tolipov O 'Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:Fan. 2004. 120 b.
4. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
5. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash.
6. www.pedagog.uz
7. www.ziyonet.uz